



NEKRONIMLAR YASALISHIDA TOPONIMIK MARKERLARNING QO'LLANISHI

Kaxarov Shuxratbek Tursunovich,

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi.

e-mail: shuhratz258la@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-8135-1619>

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1740>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 28

КАЛИТ СО'ЗЛАР/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

toponim, toponimik marker, onomastika, nekronim, atoqli ot, nominatsiya, motivatsiya, transonimizatsiya, konversiya, transpozitsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada nekronimlar tarkibidagi makon, vaqt va shakl-hajmga munosabatni ifodalaydigan markerlarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Ularning tahlili xalqimizning o'ziga xos nominatorlik tafakkuri va toponimik dunyoqarashini anglashga xizmat qiladi. Andijon viloyati nekronimlari tarkibida yuqori, quyi, pastki, eski, yangi kabi markerli nomlar ko'plab uchraydi. Ularning shakliy tuzilish xususiyatlari birma-bir o'rganilgan. Maqola so'ngida markerli nomlar hududiy yaqinlik va funksional aloqadorlik asosida vujudga kelishi xulosa qilingan. Maqolada nekronimlar tarkibida uchraydigan toponimik markerlarning lingvistik va nominativ xususiyatlari yoritilgan. Markerlarning qo'llanishi natijasida nekronimlar tizimida hududiy joylashuv, tarixiy ketma-ketlik hamda obyektlararo funksional munosabatlar ifodalanishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, markerli nekronimlar xalqning makon va zamon haqidagi tasavvurlari, tarixiy xotirasi hamda nom berish an'analari lisoniy ifodasi sifatida baholangan. Nekronimlar tarkibidagi markerlar orqali toponimik tizimning ichki taraqqiyot qonuniyatlari, onomastik uzviylik va nomlarning vorislik asosida shakllanish mexanizmlari ochib berilgan. Olingan ilmiy qarashlar o'zbek onomastikasida nekronimlarning struktur-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglash hamda toponimik tadqiqotlarni yangi nazariy yondashuvlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 28

KEYWORDS

toponym, toponymic marker, onomastics, necronym, proper noun, nomination, motivation, transonymization, conversion, transposition

ANNOTATION

The article analyzes the features of the use of markers expressing the relationship to space, time, and shape-volume in necronyms. Their analysis serves to understand the unique nominative thinking and toponymic worldview of our people. In the necronyms of Andijan region, there are many names with markers such as upper, lower, lower, old, new. Their formal structural features are studied one by one. At the end of the article, it is concluded that marker names arise on the basis of territorial proximity and functional connection. The article provides additional insights into the linguistic and nominative features of toponymic markers used in necronyms. It demonstrates how these markers contribute to expressing spatial location, historical succession, and functional relationships among burial sites within the onomastic system. Furthermore, marker-based necronyms are interpreted as linguistic reflections of collective perceptions of space and time, cultural memory, and traditional naming practices. The study also reveals the mechanisms of onomastic continuity and the formation of new names through inheritance and semantic association with existing toponyms. The findings enrich contemporary Uzbek onomastic studies and contribute to a deeper understanding of the structural and semantic organization of necronyms within the broader toponymic landscape.

Kirish. Qarama-qarshiliklar birligi va ziddiyatidan iborat bo'lgan bu borliqda inson uchun hayot-tiriklik qanchalik oliy qadriyat sanalsa, yaqinlarining vafoti va boqiy xotirasi ham u uchun shunchalik e'tiborli hisoblanadi. Shuning uchun qabristonlar, mozorlar, maqbaralar o'tgan marhumlar xotirasi uchun e'zozlanadi. Inson bu obyektlarga borliqni bilish va nomlash tafakkuridan kelib chiqib munosib nomlar qo'yadi. Ular toponimik leksikaning alohida turini tashkil etadi.

Toponimik leksika tirik lingvistik artefaktlar vazifasini bajaradi. Geografik nomlar lisoniy kod sifatida qadimda (va hozirda ham) kishilik jamiyatlarining borliqni qay tarzda idrok etgani va uning tildagi talqini, unga munosabati, undan ta'sirlanishi, uni o'zgartirishi kabi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Toponimik makroko'lam tarkibiga kiruvchi va o'zbek tilining onomastik sathida katta material beraoladigan nekronimlar – qabriston, mozor, maqbara nomlari sanaladi. Birgina Andijon viloyati misolida olib qaraydigan bo'lsak, nekronimlar miqdori sakkiz yuzdan ortadi. Bu esa ularni alohida mustaqil onomastik tip sifatida monografik jihatdan o'rganish mumkinligini ko'rsatadi.

Barcha toponimik tiplarda nominatsiya jarayoni, motivatsion asosni aniqlash birinchi navbatdagi muammolardan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Toponimlarni o'rganish sotsiologik jihatdan muhim sanaladi. Toponimlar til, inson faoliyati va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Joy nomlari an'anaviy mahalliy bilimlarni kodlaydi, tarixiy lisoniy qatlamlar, ijtimoiy guruhlarining etnik mansubligi, mashg'uloti, mahalliy flora, fauna, geologik landshaft va tarixiy voqealarni aks ettiradi. Toponimlar ma'lum bir ijtimoiy guruhning lisoniy bazasi va jamoaviy dunyoqarashi haqida chuqur tushuncha beradi, hududiy o'ziga xoslik va ijtimoiy ongning asosiy belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Toponimlarni o'rganish til tarixi jihatidan ham muhim. Toponimlar "lingvistik qazilmalar" vazifasini bajaradi. Atoqli otlar odatda tarixan

o'zgar olmaydi. Ular tilning faol leksikasida yo'q bo'lib ketgan arxaik fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarni ham o'zida saqlab qoladi.

Toponimlarni o'rganishning sof lingvistik ahamiyati ham katta. Joy nomlari har qanday til sistemasida ixtisoslashgan, yuqori darajada tuzilgan kichik leksik tizimni tashkil qiladi. Ularni o'rganish nominatsiyada jarayonida material bo'ladigan asos so'zlar, qo'shma konstruksiyalar va affiksatsiya jarayonlarini ochib beradi. Shuningdek, tarixiy yasalishning faol va passiv formalarni tahlil va tasnif qilish imkoniyatini beradi.

O'zbek onomastikasi nazariyasida atoqli otlarning yasalishi va bir onomastik birlikning boshqa onomastik birlikka aylanish jarayonlari E. Begmatov va N. Uluqov tomonidan atroflicha izohlangan. Olimlar onomastik birliklar tizimida nomlarning semantik va funksional ko'chishi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, bir turdagi atoqli otning boshqa turdagi atoqli otga aylanishi transpozitsiya hodisasi sifatida namoyon bo'ladi va bu usul o'zbek onomastikasida mahsuldor yasalish vositalaridan biri hisoblanadi [1, 84-b.].

Atoqli otlarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan A.M. Mezenko, V.M. Genkin va A.N. Derevyago esa bunday jarayonni transonimizatsiya termini bilan izohlaydilar. Tadqiqotchilar transonimizatsiyani onomastik tizimning ichki rivojlanish mexanizmi sifatida baholab, bir onimning boshqa onim uchun nominativ asos vazifasini bajarishini ko'rsatadilar [2, 44-b.]. Ushbu nazariya nekronimlarning mavjud oykonimlar yoki boshqa nekronimlar asosida shakllanishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

N.V. Podolskaya rus onomastik terminologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotida atoqli otlarning o'zaro ta'sirlanishi va yangi nomlarning hosil bo'lishini irradiatsiya hodisasi bilan bog'laydi. Olimning fikricha, onomastik maydonda mavjud nomlar yangi obyektlarga ko'chishi natijasida murakkab nominativ munosabatlar shakllanadi [3, 63-b.]. Bu

qarash nekronimlar tarkibida uchraydigan markerli nomlarning paydo bo'lish mexanizmini izohlashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

A.I. Primov o'zbek kosmonimlari materiallari asosida atqoli otlarning yasash xususiyatlarini o'rganar ekan, transpozitsiya usuli onomastik birliklar tizimida eng faol jarayonlardan biri ekanligini qayd etadi [4, 11-b.]. Ushbu fikr nekronimlar tizimiga ham taalluqli bo'lib, qabriston nomlarining ko'pchiligi boshqa toponimlar yoki mavjud nekronimlar asosida hosil bo'lishini tasdiqlaydi.

A.V. Superanskaya onomastika nazariyasining yetakchi vakillaridan biri sifatida atqoli otlar strukturasi va yasash mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. U onimlarning boshqa onimlar asosida hosil bo'lishini onomastik konversiya deb ataydi hamda bunday jarayonlar nomlash tizimining tabiiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [5, 93-b.]. Olimning qarashlari nekronimlar tarkibidagi yuqori, quyi, eski, yangi kabi markerlarning paydo bo'lishini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

A.V. Superanskaya, V.E. Stalmane, N.V. Podolskaya va A.X. Sultanovlarning qo'shma tadqiqotlarida onomastik tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda atqoli otlarning tarixiy, semantik va struktur tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar bir atqoli otning boshqa atqoli ot asosida yasashi onomastik tizimning eng sarmahsul usullaridan biri ekanligini qayd etadilar [6, 46-b.]. Bu nazariya Andijon viloyati nekronimlarida kuzatiladigan markerli nomlarning shakllanishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

N. Uluqov o'zbek gidronimlari misolida onomastik birliklarning ichki taraqqiyotini o'rganib, bu jarayonni ichki konversiya termini bilan ifodalaydi. Tadqiqotchining fikricha, mavjud nomlar yangi obyektlarga ko'chishi natijasida nominativ tizimda uzviylik saqlanadi va tarixiy nomlash an'analari davom etadi [7, 166-b.]. Ushbu holat nekronimlar tizimida ham yaqqol kuzatiladi.

So'nggi yillarda nekronimlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Sh.T. Kaxarov nekronimlarda indikatorlarning qo'llanish xususiyatlarini o'rganib, yuqori, quyi, eski, yangi kabi markerlar qabriston nomlarini o'zaro farqlash va hududiy mansublikni ko'rsatishda muhim vosita ekanligini aniqlagan. Olim markerli nekronimlarning shakllanishida hududiy yaqinlik, funksional aloqadorlik va tarixiy davomiylik omillari asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi [8, 182–186-b.].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nekronimlar yasashida tranonimizatsiya, onomastik konversiya va transpozitsiya jarayonlari muhim o'rin tutadi. Biroq nekronimlar tarkibidagi toponimik markerlarning struktur-semantik xususiyatlari, ayniqsa, ularning hududiy va tarixiy motivatsiyasi masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni aniqlash va nekronimlar tizimidagi markerlarning funksional imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Andijon viloyati hududidagi nekronimlarning to'planishi, tasniflanishi va lingvistik tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy hamda struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Nekronimlar tarkibidagi yuqori, quyi, pastki, eski, yangi, katta kabi toponimik markerlarning qo'llanish xususiyatlari o'rganilib, ularning nominativ vazifalari aniqlandi. Shuningdek, onomastik transpozitsiya, tranonimizatsiya va konversiya hodisalari asosida nekronimlarning yasash mexanizmlari tahlil qilindi. Olingan natijalar statistik kuzatish va tasniflash usullari yordamida umumlashtirilib, markerlarning hududiy joylashuv, vaqt va shakl-hajm munosabatlarini ifodalashdagi funksional imkoniyatlari yoritildi.

Tadqiqot natijalari. Nekronimlar nominatsiyasida ham ayrim o'ziga xosliklar bor. Nomlanish motivi obyekt lokatsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, har qanday dafn etish joyi aholi yashash manzillariga bevosita bog'liq hududlarda barpo etiladi. Dastlabki etapda mahalla yoxud qishloqdan tashqarida bo'lgan qabristonlar, keyinchalik qishloqlar kengayishi natijasida hudud ichi obyektiga o'tganlar. Odatda, u qadar katta bo'lmagan aholi punktlarida bittadan qabriston bo'lgani uchun, aksariyat qabristonlar nomi o'zi joylashgan hudud nomi bilan parallellik kasb etadi. Metonimiya yo'li bilan bir atqoli otdan ikkinchi atqoli ot, ya'ni oykonimdan nekronim yasaladi. Andijon viloyati nekronimlarida ham bu usul faol qo'llangan: *Ko'makay qishlog'i* → *Ko'makay qabristoni* (*Oltinko'l tum.*), *Qadim qishlog'i* → *Qadim qabristoni* (*Asaka tum.*) kabi. Toponimlar bilan birga kelib, ularni ma'lum turga oid ekanini xoslovchi identifikatorlar (*qishloq*, *qabriston* kabi) rasmiy nomenklaturada o'z o'rniga ega bo'lsa-da, lekin voqelikda, nutqda asosiy nomdan ajralib qoladi, tushiriladi [8, P.182–186]. Garchi bunda toponimlar omonimiyasi, ya'ni oykonim va nekronim parallelligi vujudga kelayotgan bo'lsa ham, nominator uchun, xususan, til egasi bo'lgan kommunikantlar uchun toponimning qaysi turga mansubligi aniq bo'lib turgan nutq vaziyatida identifikatorga zarurat sezilmaydi.

Ayni hududda ikkinchi turdosh obyekt, ya'ni ikkinchi qabristonning vujudga kelishi esa nominatsiya jarayonida ularni o'zaro farqlash zaruratini keltirib chiqaradi, albatta. Ya'ni, yangi atqoli otga – nekronimga

ehtiyoj seziladi. Shu tarzda eski nekronim asosida yangi nekronim vujudga keladi. Yangi topoobyektni nomlash tamoyillari orasida yangi lug'aviy birlik, ya'ni apellyativ asosida onim yasash mashhur qoida bo'lsa-da, yangi toponimni eski nomga maxsus marker (leksik) birliklar qo'shib kompozit konstruksiyalar hosil qilish ham keng tarqalgan. Ushbu marker birliklar hududiy aloqador obyektlarni joylashuv makoni yoki yuzaga kelish davri bo'yicha o'zaro qarshilantiradi. Andijon viloyati nekronimlarida bu tip yasash shakli faol sanaladi. Bularni tasniflaydigan bo'lsak, keyingi nomni farqlash uchun, odatda, a) lokallashtiruvchi marker qo'shiladi va obyektning ma'lum nuqtaga nisbatan olingan joylashuv yo'nalishini va nuqtasini ko'rsatadi, ular quyidagilar: *yuqori*, *pastki*, *quyi*, *o'rta*; b) nekronimik obyektlar vujudga kelishining davriy ketmaketligini ko'rsatish uchun *eski* va *yangi* markerlari qo'llanadi; d) ba'zan esa hudud jihatidan kattalik yoki nisbiy ahamiyatlikni ko'rsatish uchun *katta* markeri qo'llanadi. Nekronimlar tarkibida bulardan statistik jihatdan *yangi* va *yuqori* markerlari faol qo'llangan. Shuningdek, *eski*, *pastki*, *quyi* markerlari kam faol sanaladi, *katta* va *o'rta* markerlari esa nekronimlarda juda kam uchraydi.

Ushbu markerlar nekronimik asos oldidan kelib, u bilan atributiv munosabatga kirishadi hamda makonga, zamonga, shakl-hajmga nisbatan ifodalangan obyekt belgisini ko'rsatishga xizmat qiladi. Hamda grammatik struktura jihatidan murakkab tarkibli nekronimlarni hosil qiladi.

Mazkur markerlarning nekronimlar tarkibida qo'llanishida shakliy jihatdan bir necha xususiyatlar ajraladi.

Birinchi holat: eski obyekt nomi markerlanmaydi, balki faqat yangi obyekt nomi markerlanadi: *Tuyamozor* → *Yuqori Tuyamozor* (*Andijon tum.*), *Ungut* → *Yuqori Ungut*, *Olaqanot* → *Pastki Olaqanot*, *Qadim* → *Quyi Qadim* (*Asaka tum.*), *Sangraobod* → *Quyi Sangraobod* (*Paxtaobod tum.*), *Oqtepa* → *Katta Oqtepa* (*Oltinko'l tum.*), *Ko'kto'qli ota* → *Yangi Ko'kto'qli ota* (*Andijon tum.*) kabi.

Ikkinchi holat: ham eski obyekt, ham yangi obyekt nomlari markerlanadi: *Pastki Tuvadoq* → *Yuqori Tuvadoq* (*Asaka tum.*), *Yuqori Shomat* → *Pastki Shomat* (*Marhamat tum.*), *Eski Qo'shqayrag'och* → *Yangi Qo'shqayrag'och* (*Andijon tum.*) kabi.

Yuqori, *pastki*, *quyi* markerlari oldindan belgilangan obyektga nisbatan topografik joylashuvni, hududiy mansublikni ifodalashga xizmat qilmoqda. Bu markerlar vositasida ifodalangan o'rin-joy belgisi vertikal yo'nalish emas, balki gorizontol yo'nalish bilan bog'liq belgini ifodalaydi, albatta. Chunki hudud relyefi tog'li joy bo'lmagani uchun shu fikr to'g'ri bo'ladi. Gorizontol yo'nalish bo'yicha *yuqori*, *pastki*, *quyi* leksemalari nominatorlarning shartlangan va kelishilgan maqsadlariga ko'ra belgilanadi. O'rganilayotgan hudud toponimikasida, odatda, nominator joylashgan nuqtadan markazga tomon yo'nalishdagi topoobyektlar *yuqori* va markazga qarshi yo'nalishdagi topoobyektlar *quyi*, *pastki* leksemalari bilan markerlanadi. Masalan, *Yuqori Tuvadoq* topoobyekt *Pastki Tuvadoqqa* qaraganda Asaka shahriga yaqinroq, *Quyi Qadim* topoobyekt *Qadimga* nisbatan Asaka shahridan uzoqroq joylashgan.

Markerlar orasida shakl-hajmni ifodalovchilari u qadar faol emas: Bunda birlamchi nekronim markerlanmagan bo'ladi. Keyin vujudga kelgan topoobyektlar esa odatda markerlangan: *Tojik* → *O'rta Tojik* → *Katta Tojik* (*Asaka tum.*). Nekronim va umuman toponimlardagi *katta* markeri bevosita hududiy kattalik ma'nosini hamda asosiy obyekt ekanlik ma'nolarini yuklaydi. Bundan oldingi *yuqori* – *quyi*, *yuqori* – *pastki* kabi markerlarda bo'lgan ma'noviy zidlanish variantlari mazkur markerda kuzatilmadi. Ya'ni, kattaning kichik ekvivalenti mavzu doirasidagi topoobyektlarda yo'q.

Markerlar nekronimlarning davriy ketmaketligini ham aniqlaydi. Bunda navbatdagi nekronim *yangi* markerini qabul qiladi: *Yuqori Shahidmozor* → *Yangi Shahidmozor* (*Andijon tum.*). Farqlanayotgan har ikki nekronim markerlanishi ham mumkin. Bunday nomlar ko'proq uchraydi: *Eski Qo'shqayrag'och* → *Yangi Qo'shqayrag'och*, *Eski Zangi ota* → *Yangi Zangi ota*, *Eski Bobog'oziy* → *Yangi Bobog'oziy* (*Andijon tum.*), *Eski Qo'shqayrag'och* → *Yangi Qo'shqayrag'och* (*Andijon tum.*). Topoobyektlarning eskilik va yangilik belgilarini ko'rsatishga xizmat qiluvchi ushbu markerlardagi o'ziga xos jihat, bizningcha, *eski* markerining qo'llanishida kuzatiladi. Ma'lumki, keyindan vujudga kelgan *yangi* markerli toponimlar qo'llanguna qadar *eski* markeri belgilangan toponimlar tarkibida qo'llanmagan. Ya'ni, *Eski Qo'shqayrag'och* ≈ *Qo'shqayrag'och*, *Eski Zangi ota* ≈ *Zangi ota* tarzida qo'llangan. Biroq topoobyektlar o'rtasidagi zidlik, qarshilantirish zaruratidan kelib chiqib *yangi* markeri bevosita o'zining zid ma'nodosh ekvivalenti *eski* markerini taqozo etadi. Demak, toponim yoxud nekronimlar tarkibidagi *eski* va *yangi* markerlarning vujudga kelishini bir vaqtga tegishli desak bo'ladi. Ya'ni, *eski* markerining toponim tarkibida qo'llanishi *yangi* markerli toponimning qo'llanish davriga mos keladi.

Muhokama. Nekronimlar xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari va hududiy dunyoqarashini o'zida mujassam etuvchi muhim onomastik birliklardan hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Andijon viloyati

nekonimlarning shakllanishida toponimik markerlarning faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori, quyi, pastki, eski, yangi va katta kabi markerlar bir xil asosli nekonimlarni o'zaro farqlash, ularning joylashuv o'rni yoki vujudga kelish davrini belgilash vazifasini bajaradi. Bu holat nominatsiya jarayonida tilning tejamkorlik tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Chunki yangi qabriston yoki mozar uchun mutlaqo yangi nom yaratilmasdan, mavjud nekonim asosiga farqlovchi marker qo'shish orqali yangi nominativ birlik hosil qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nekonimlarning aksariyati o'zlari joylashgan hudud nomlari bilan bevosita bog'liq holda yuzaga kelgan. Bunday holatda oykonimlarning nekonimlarga ko'chishi kuzatiladi va bu jarayon onomastik transpozitsiyaning amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada hudud nomi va qabriston nomi o'rtasida semantik hamda funksional aloqadorlik saqlanib qoladi. Bu esa mahalliy aholi uchun obyektning identifikatsiya qilishni yengillashiradi hamda nomning tarixiy davomiyligini ta'minlaydi.

Markerli nekonimlarning shakllanishida hududiy munosabatlar muhim o'rin tutadi. Yuqori, quyi va pastki markerlari orqali ifodalangan joylashuv belgisi ko'proq nisbiy geografik orientatsiyani aks ettiradi. Mazkur markerlar real vertikal balandlikni emas, balki ma'lum markazga nisbatan joylashuvni bildiradi. Bu holat toponimik tafakkurning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beradi. Nominatorlar obyektlarni fazoviy jihatdan baholashda geografik koordinatalardan emas, balki ijtimoiy va hududiy markaz tushunchasidan kelib chiqadilar. Shu sababli bir xil asosli nekonimlarning yuqori va quyi variantlari shakllanadi.

Eski va yangi markerlari esa nekonimlarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlab qoladi. Ular qabristonlarning vujudga kelish ketma-ketligini ifodalash bilan birga, hududning demografik rivojlanishi haqida ham ma'lumot beradi. Yangi qabriston tashkil etilishi bilan avvalgi obyekt avtomatik ravishda eski maqomini oladi va natijada antonimik juftlik yuzaga keladi. Bu esa toponimik tizimda o'zaro bog'langan nominativ munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida katta va o'rta markerlari nisbatan kam qo'llanishi aniqlandi. Bu holat nekonimlar nominatsiyasida hududiy joylashuv va vaqt omili hajm yoki miqdor omiliga nisbatan muhimroq ekanligini ko'rsatadi. Demak, nekonimlarni nomlashda obyektning kattaligidan ko'ra uning joylashuvi va tarixiy davri ustuvor nominativ belgi sifatida tanlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – 104 б.
2. Мезенко А.М., Генкин В.М., Деревяго А.Н. Теория имени собственного. – Витебск: ВГУ, 2022. – 201 с.
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. 2-изд. – М.: Наука, 1988. – 187 с.
4. Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 27 б.

Nekronimlar tarkibidagi toponimik markerlar nafaqat obyektlarni farqlash vositasi, balki xalqning makon va zamon haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida ham ahamiyatlidir. Ularning tahlili o'zbek onomastikasida nominatsiya jarayonlari, transnominatsiya hodisalari hamda toponimik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Shu jihatdan nekonimlar tarkibidagi markerlar xalqning tarixiy tajribasi, hududiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini o'zida saqlovchi muhim lisoniy vositalar sifatida baholanishi mumkin.

Xulosalar. Xulosa qiladigan bo'lsak, mazkur toponimik markerlar ayni o'xshash asosli nekonimlarni, oykonimlarni o'zaro farqlash zaruratidan kelib chiqib qo'llangan. Bunda lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida yangi obyektlarga yangi apellyativ asosidagi yangi nom berilmaydi. Balki hududiy yaqinlik, funksional aloqadorlik jihatlaridan mavjud nomlar bilan farqlovchi maxsus marker so'zlarni qo'llash usulida eski nomlar asosida yangi nomlar yasaladi. Hamda yangi topoobyektga eski topoobyektga aloqadorlik va bog'liqlik xususiyatlari saqlanib qoladi. Nekronimlar tarkibida qo'llanadigan toponimik markerlar nomlash tizimining muhim tarkibiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Yuqori, quyi, pastki, eski, yangi, katta va o'rta kabi markerlar bir xil asosli nekonimlarni o'zaro farqlash, ularning hududiy joylashuvi, vaqt jihatidan ketma-ketligi hamda nisbiy xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu markerlar vositasida yangi nomlar hosil qilinishi natijasida mavjud onomastik birliklar bilan semantik va funksional bog'liqlik saqlanib qoladi. Andijon viloyati nekonimlarida makon va vaqt munosabatlarini ifodalovchi markerlarning faol qo'llanishi xalqning toponimik tafakkuri va nom berish an'analarning o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Ayniqsa, yuqori–quyi, eski–yangi kabi qarama-qarshi ma'noli birliklar nekonimlar tizimida obyektlarni aniq ajratish hamda ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Markerli nekonimlar hududiy yaqinlik, tarixiy davomiylilik va funksional bog'liqlik asosida shakllangan bo'lib, ular nafaqat geografik obyektlarni nomlash ehtiyojini qondiradi, balki muayyan hududning madaniy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va lingvomadaniy qarashlarini ham aks ettiradi. Shu jihatdan nekonimlar tarkibidagi toponimik markerlar o'zbek onomastik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

5. Суперанская А.В. Структура имени собственного (Фонология и морфология). – Москва: Наука, 1969. – 206 с.
6. Суперанская А.В., Сталтмане В.Э., Подольская Н.В., Султанов А.Х. Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – 256 с.
7. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
8. Kaxarov Sh.T. Nekronimlarda indikatorlarning qo'llanish xususiyatlari // Miasto Przyszosci. Vol 60 (2025). ISSN-L: 2544-980X. – P. 182–186.